

*Mexmonova Zulfizar Ne'matillo qizi*

*Oriental universiteti "Talim menejmenti" yo'nalishi magistranti*

## TA'LIM MUASSASALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada globallashuv sharoitida innovatsion faoliyatning rivojlanib borayotganligi, ta'lim ehtiyojlarini qondirishda innovatsiyalarning muhimligi, OECD mamlakatlari misolida ta'limdagi innovatsiyalarni rag'batlantirish, osonlashtirish va o'lchash uchun samarali hamda dalillarga asoslangan siyosatni amalga oshirish zaruarti haqida fikr mulohalar yuritilgan. Innovatsiya tushunchasiga aniqlik kiritilib, uning turlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar.** Innovatsiya, modernizatsiya, transformatsiya, ta'lim, sifat, samaradorlik, ehtiyoj, boshqaruv, integratsiya.

## THE IMPORTANCE OF INNOVATIONS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATIONAL INSTITUTIONS

**Abstract.** This article discusses the development of innovative activity in the context of globalization, the importance of innovation in meeting educational needs, the need to implement effective and evidence-based policies to encourage, facilitate and measure innovation in education in the case of OECD countries. The concept of innovation is clarified and its types are analyzed.

**Keywords.** Innovation, modernization, transformation, education, quality, efficiency, need, management, integration.

## ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В РАЗВИТИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

**Аннотация.** В данной статье рассматривается развитие инновационной деятельности в условиях глобализации, важность инноваций в удовлетворении образовательных потребностей, необходимость реализации эффективных и научно обоснованных политик для поощрения, облегчения и измерения инноваций в

образовании на примере стран ОЭСР. Уточняется понятие инновации и анализируются ее виды.

**Ключевые слова.** Инновации, модернизация, трансформация, образование, качество, эффективность, потребность, управление, интеграция.

Jahonda inson kapitaliga bo'lgan munosabatning o'zgarib borayotganligi, XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lgan kadrlarga ehtiyojning yuqoriligi ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, pedagog xodimlardan esa doimiy ravishda uzluksiz kasbiy rivojlanishni talab etmoqda. Ta'limdagi muammolarga bag'ishlangan butunjahon Forumida qabul qilingan 2030-yilgacha mo'ljallangan konsepsiyada hayot davomida o'qish tamoyili o'z aksini topgan. Shuningdek, barchaga uzluksiz sifatli ta'lim olish uchun sharoit yaratish dolzarb vazifa etib belgilangan. Bu esa ta'lim muassasalarini innovatsiyalar asosida rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunga kelib innovatsiyalar iqtisodiyot va jamiyatdagi o'sish hamda farovonlikning harakatlantiruvchi omiliga aylandi. Ta'lim sohasida innovatsiyalarning muhim jihati shundaki, tizimni kengaytirish bilan birga sifat o'zgarishlarini ham amalga oshirish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Innovatsiyalar ta'lim imkoniyatlarining sifati va tengligi bo'yicha ko'proq samaradorlik hamda yaxshilangan natijalarga olib kelish imkonini beradi. Shuningdek, yutuqlarini qo'lga kiritish uchun ta'lim va o'qitish siyosati odamlarga innovatsiyalar kiritish va innovatsiyalarga moslashish imkoniyatini berishi kerak. Ushbu tashabbusda OECD mamlakatlari ta'limdagi innovatsiyalarni rag'batlantirish, osonlashtirish va o'lchash uchun samarali va dalillarga asoslangan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha bilim va tajriba almashib kelmoqda.

Shu o'rinda "OECD" haqida to'xtaladigan bo'lsak, bu – iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot xalqaro tashkiloti (OECD) hisoblanadi. Tashkilotning asosiy maqsadi – a'zo davlatlar umumiy muammolarga yechim topish uchun birgalikda ishlash, rivojlanish, global standartlar, tajriba almashish va eng yaxshi amaliyotlarni aniqlash, yaxshi hayot uchun yaxshiroq siyosatni ilgari surish [4].

OECD tashkilotining ta'lim va ta'lim uchun CERI innovatsion strategiyasi ta'lim tizimlarini tubdan va bosqichma-bosqich innovatsiyalar asosida doimiy takomillashtirishni qo'llab-quvvatlash hamda odamlarni innovatsiyalar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar bilan jihozlashda yangi yondashuvlarni o'rganmoqda. Loyiha ikkita asosiy va qo'shimcha ish yo'nalishini ishlab chiqqan. Ular quyidagilar:

**1. Ta'limdagi innovatsiyalar.** Bu ta'lim sohasida innovatsiyalarning turli shakllarini qanday rivojlantirish va o'lchash mumkinligi hamda ular qanday yaxshi natijalarga olib kelishini o'rganadi.

**2. Innovatsiyalar uchun malaka va ta'lim.** Bu innovatsion jamiyatlarda zarur bo'lgan ko'nikmalar to'plamini va ularni ta'limda qanday rivojlantirish mumkinligini o'rganadi. Bu, ayniqsa, ta'lim oluvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini qanday rivojlantirish va baholashga qaratilgan [5;1].

Ta'limi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular o'z faoliyatlarida sifat samaradorlikka erishish uchun innovatsiyalardan foydalanayotganligini ko'rish mumkin. O'zini rivojlanish yo'lida deb hisoblaydigan har qanday ta'lim muassasasi innovatsion terminologiyani puxta egallashi, o'zining har qanday uslubiy g'oya va ishlanmalarini innovatsion tarzda tasvirlashi kerak. Ammo ko'pchilik kontsepsiyaning mohiyatini chuqur o'rganishmaydi, chunki innovatsiya nima va nima emasligini aniqlay olmaydi.

**Globalashuv jarayonida innovatsion faoliyat jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olmoqda. Fan va texnikaning eng yangi yutuqlarini joriy etish, yangicha fikrlash har qanday faol rivojlanayotgan jarayonning asosiy xususiyatiga aylandi. Transformatsiya vositasi sifatida bugungi kunda u hali boshlang'ich bosqichida, empirik qidiruv jarayonida va shunga mos ravishda ushbu sohada ko'plab savollar tug'iladi.**

Innovatsiyalar har qanday kasb bilan shug'ullanadigan inson faoliyatiga xosdir va shuning uchun tabiiy ravishda o'rganish, tahlil qilish va amalga oshirish obyektiga aylanadi. Innovatsiyalar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, ular alohida professor-o'qituvchilar, ilmiy xodimlar va butun jamoalarning ilmiy izlanishlari, ilg'or pedagogik tajribalari natijasidir.



Ta'limdagi innovatsion jarayonlar bugungi kunda davrning asosiy talabi sifatida jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismiga aylandi. Pedagogik faoliyatga nisbatan innovatsiya deganda ta'lim va tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, usullari va shakllariga yangilik kiritish, o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish tushuniladi. Ta'lim muassasasini rivojlantirishdagi innovatsion faoliyat esa kengroq tushuncha bo'lib, ham muassasaning umumiy boshqaruv, ham ta'lim sifatini oshirish jarayoni bilan bog'liq tushuncha. Boshqaruvda yangi usul, metod va vositalarinidan foydalanish, shuningdek, yangi mexanizmlarni qo'llash, ularni takomillashtirish innovatsiya hisoblanadi.

Ta'limda innovatsion faoliyatning umumiy qabul qilingan tushunchasi hali mavjud emas. U allaqachon ishlab chiqilgan bo'lsa ham, u hali amaliyotga to'liq joriy etilmagan, chunki innovatsiyalar doimiy rivojlanishda bo'ladi.

“Innovatsiya” tushunchasi yangilik, o'zgarish degan manolarni anglatadi; innovatsiya vosita va jarayon sifatida yangi narsani joriy qilishni o'z ichiga oladi [10;88]. Vikipediya (ochiq ensiklopediya)da “innovatsiya (ing. Innovationas – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuklari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi”[3], deb ta'kidlangan.

Innovatsiyalar mavzusida ta'lim muassasalari rahbarlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, bu so'z asosan yangi texnologiyalar, o'quv qo'llanmalari, darslarni o'tkazishning yangi shakllariga nisbatan qo'llanilganini ko'rish mumkin. Ya'ni, har qanday yangilik, hatto subyektiv xususiyatga ega bo'lsa ham, rahbarlar tomonidan butunlay innovatsion g'oya sifatida o'ylab topiladi. Va bu aniq: agar menejerlarda qiyinchiliklar bo'lsa, unda, albatta, amaliyotchilarda ham ulardan kam bo'lmagan muammolar yuzaga kelishi mumkin.

Ta'lim sohasidagi mavjud innovatsion faoliyat amaliyoti, shubhasiz, o'ziga xos muammolar va qiyinchiliklarga ega. Innovatsion jarayonlarni rivojlantirish, innovatsion pedagogik faoliyat kabi muammo, unga bo'lgan munosabatimizdan qat'i nazar, alohida e'tibor va majburiy hal qilishni talab qiladi. Avvalo, ushbu jarayonning barcha



ishtirokchilariga innovatsion rejimga xavfsiz kirishga faol yordam beradigan o'quv adabiyotlari zarur.

Innovatsion mahsulot – ma'lum maqomga ega bo'lgan va fan bilan aloqada bo'lgan, yangi yoki takomillashtirilgan xizmat ko'rsatish yoki amaliyotda sinovdan o'tgan va tarqatishga tayyor mahsulot bo'lgan ta'lim muassasasi faoliyati natijasidir. Ta'lim muassasalariga innovatsiyalarni jori etishda rahbarlar va pedagog-xodimlar uchun zamonaviy tadqiqotlar asosida yaratilgan o'quv-metodik adabiyotlar dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Innovatsiyalarning ikki turi mavjud:

**Modernizatsiya** – bu takomillashtirilgan jarayon (ya'ni odatiy o'quv jarayonini inqilobiy tarzda o'zgartirilmaydi, lekin jarayonlarning, natijalarning boshqa sifatiga erishishi uchun ba'zi qismlari o'zgartiriladi).

**Transformatsiya** (modernizatsiya bilan bog'langan va tanish, an'anaviy shakllarning tubdan o'zgarishini ta'kidlaydigan tushuncha) – bu odatiy sinf va dars tizimining sezilarli o'zgarishiga olib keladigan pedagogik amaliyotda yangi g'oyalarni yaratish (muqobil ta'lim muassasalari yoki shakllarining paydo bo'lishi, ta'lim jarayonini tashkil etish) [2].

Modernizatsiya konsepsiyasining asosiy g'oyasi ko'pchilik o'quvchi va talabalar uchun o'rganish samaradorligini ta'minlashga urinishdir ("minimal bering, lekin hamma uchun"). Bu yerda uch yo'nalishda harakat qilish mumkin:

ishlab chiqarishda ta'lim xizmatlari sifatini ta'minlaydigan muhim yadro – yangi davlat ta'lim standartini yaratish;

assimilyatsiya mantig'ini maksimal darajada hisobga olish va shunga mos ravishda o'quvchi tomonida sodir bo'ladigan psixologik jarayonlarga yanada ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish;

fikr-mulohazalarni kuchaytirish (o'quv jarayonining har bir bosqichida har bir o'quvchi bilan nima sodir bo'lishini tushunishga imkon beradigan turli diagnostika turlari).

O'quv jarayonini modernizatsiya qilish g'oyasini ushbu uchta asosiy pozitsiyaga qisqartirish mumkin. Agar biz innovatsion mahsulotlar tanlovi doirasida taklif etilayotgan



mahsulotlarni ko'rib chiqsak, ularning barchasi yoki ta'lim dasturining mazmuni atrofida qurilgan, yoki masalaning psixologik va pedagogik tomoni ko'proq bo'lgan ushbu tarkibni aniqroq texnologik qo'llab-quvvatlash yoki baholash tizimi va diagnostika usullari atrofida ishlab chiqilgan variantlar.

Aynan o'quv jarayoni o'zgarib turadigan va o'quv jarayonini tashkil etish shakli tubdan qayta tuzilgan innovatsiya-transformatsiyalar asosida ham ijodiy mahsulotlarni, ham o'quvchilarning samarali havaskorlik faoliyatini yaratish mumkin.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining asosiy maqsadi insonni doimiy o'zgarib turadigan dunyoda hayotga tayyorlashdir. Bunday treningning mohiyati ta'lim jarayonini shaxsning potentsial imkoniyatlariga yo'naltirish va ularni amalga oshirishdir. Ta'lim innovatsion faoliyat mexanizmlarini rivojlantirishi, hayotiy muammolarni hal qilishning ijodiy yo'llarini topishi, ijodkorlikning inson mavjudligi normasi va shakliga aylanishiga hissa qo'shishi kerak. "Innovatsion faoliyatning maqsadi – an'anaviy tizimga nisbatan o'quvchi shaxsini sifat jihatidan o'zgartirish. Bu pedagogik inqirozni bartaraf etishni o'z ichiga olgan amaliyotga noma'lum didaktik va o'quv dasturlarini kasbiy faoliyatga kiritish tufayli amalga oshadi"[10;88]. Harakatlarni rag'batlantirish, olingan ma'lumotlarni mustaqil ravishda boshqarish qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy noan'anaviy fikrlashni shakllantirish, fan va amaliyotning eng so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda bolalarning tabiiy qobiliyatlarini maksimal darajada ochib berish orqali rivojlantirish innovatsion faoliyatning asosiy maqsadlari hisoblanadi. Ta'limdagi innovatsion faoliyat insonning o'zini axloqiy takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy ahamiyatga ega amaliyot sifatida muhim ahamiyatga ega, chunki u jamiyatda mavjud bo'lgan barcha turdagi amaliyotlarning o'zgarishini ta'minlashi mumkin.

Aslida, haqiqiy innovatsiya haqida faqat yettita muhim xususiyat mavjud bo'lgandagina gapirish mumkin:

tizimni o'zgartirish;

pedagogik obyekt;

ilg'or ta'lim tendentsiyalariga muvofiqligi;

dolzarb pedagogik muammolarni hal qilishga e'tibor qaratish;

jamoatchilik tomonidan tan olinishi;

yangi sifat;

amalga oshirishga tayyorligi.

Pedagogik innovatsiyaning ta'rifini bir jumlada shakllantirish juda qiyin. Ma'lum pedagogik obyekt (maktab, dars, kurs, dastur, metodika va boshqalar)dagi tizimli o'zgarishlar shunchaki o'zgarish emas, bu ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari bilan bog'liq ilg'or ta'lim tendentsiyalari hisoblanadi.

O'zgartirish eski usullar bilan hal qilib bo'lmaydigan dolzarb pedagogik muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi juda muhimdir. Shunday qilib, ma'lum bir o'zgartirish kiritildi, u pedagogik jamoatchilikka taqdim etildi va yangi sifat mustahkamlanganligi e'tirof etildi va taklif qilingan g'oya tarqatishga tayyor bo'ldi. Ya'ni, bu g'oyada mualliflik koeffitsientining o'rni katta emas, chunki o'ziga xos mahsulot taqdim etilgan bo'lsa-da, unda boshqa ta'lim muassasalarida yoki boshqa o'qituvchining faoliyatida foydalanilganda har doim ham ijobiy natija bermasligi mumkin.

Biz individual o'qituvchilar, tashabbuskor guruhlar yoki ta'lim muassasalaridan keladigan turli xil mahsulotlarni o'rganganimizda, pedagogik obyektlarning juda boshqacha ko'lamiga guvoh bo'lganmiz. Bu butun ta'lim muassasasining (ba'zan tuman) ta'lim tizimi yoki yangi turdagi ta'lim muassasasi ("makro darajadagi" innovatsiyalar) faoliyatini metodik takomillashtirishga xizmat qilishi aniqlangan. Ushbu holatlardan kelib chiqib aytish mumkinki, innovatsiyalar ham individual xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Bunda ma'lum bir innovatsiya hamma obyektlarga ham mos kelavermasligi nazarda tutilmoqda.

Shunday qilib ta'lim muassasalari rahbarlari innovatsiyalari transformatsion shaklda amalga oshirishda mahalliy ehtiyojlar, qadriyatlarni inobatga olishi va rivojlantirish bo'yicha zarur bo'lgan dizaynlar, amaliy bilimlar hamda puxta rejalashtirishdan foydalib uzoq muddat davom etadigan o'zgarishlarga tayyor bo'lishi lozim. Shuningdek, ta'lim siyosatini ham nazardan qochirmaslik shart [1; 2].

Yangicha sifatga erishish uchun yangi standart va qisman yangi hujjatlar zarur bo'ladi. Bu maqsadlarga erishish imkonini beruvchi vosita hisoblanadi. Yangi maqsadlar





esa universal o'quv faoliyati tashkil qilish, asosiy kompetensiyalarni shakllantirish va boshqalardan iborat bo'lishi mumkin. O'zining uslubiy timsolida o'qituvchiga bu kompetensiyaga asoslangan natijalar uchun katta hajmdagi yuklama yuklanmaydi. Bunday vaziyatda tashkilotning o'zida nimadir o'zgarishi kerak. Shuning uchun texnologik darajadagi innovatsiyalarga – yangi uslubiy tartibga solishga qiziqish ortishi tabiiydir. Shuning uchun biz innovatsion mahsulotlarning tipologiyasi haqida gapirganda, bizni texnologik jihat qiziqtiradi. Bu yerda quyidagi variantlarni ko'rish mumkin.

**Innovatsiya - moslashish.** Taniqli g'oya ba'zi yangi sharoitlarda prognoz qilinadi. Masalan, guruh ishi yangilik emas, lekin undan bilimlarni tekshirish yoki baholash bosqichida foydalanish ma'lum darajada nou-xau hisoblanadi. Barcha o'qituvchilar doimiy ravishda individual kartalar bilan ishlaydilar, ammo ulardan yangi bilimlarniy etkazish bosqichida foydalanish ko'p jihatdan innovatsiyadir.

**Innovatsiya - yangilanish.** Bu pedagogikada hammasi bo'lmasa ham ko'p narsa yaratilgan degan g'oyaga berilgan hurmatdir. An'analarning ulkan salohiyati va ularga e'tiborli munosabatda bo'lish, ulardan bugungi taraqqiyotning yangi bosqichida foydalanish juda muhim. Dizayn g'oyalari bugungi kunda juda innovatsion tarzda qabul qilinadi, garchi bu ham innovatsiya-ta'mirlashdir. Misol: 1905-yil, Stanislav Shatskiy o'z guruhi bilan o'qitishda loyiha usulini amalga oshirish ustida ishlamoqda. Va bugun biz ushbu texnologiyaga qaytamiz, lekin yangi bosqichda, qisman yangi ma'no va yangi uslubiy burilishlarni kiritamiz.

**Innovatsiya - integratsiya.** Bunda har bir o'qituvchida turli xil pedagogik texnikalar, metodik ishlar tarqoq bo'ladi. Xuddi rassomning ranglari ko'p bo'lganidek, u bu ranglardan har safar yangi kompozitsiya yaratadi. Bizga tanish bo'lgan usullarning yangi tarkibi bo'lgan ba'zi texnologik innovatsion g'oyalar haqida gapirganimizda tanqidiy fikrlash texnologiyasini innovatsiya-integratsiyaga ham kiritish mumkin. Chunki u, albatta, taniqli texnikalarning yangi tarkibi; o'zining eng xilma-xil turlarida (qiymat-semantik yo'nalishlar, bilimlarni shakllantirish, hamkorlik) dastgoh texnologiyasi hisoblanadi [10; 89].

Texnologiyalar orqali e'lon qilingan innovatsion mahsulotlarni olganimizda, biz kamdan-kam hollarda ularning batafsil mazmuniga to'xtalamiz. Ko'rinib turibdiki,





metodologik vositaning yaxlit, tizimli tavsifi yoki o'zgarishi imkoniyatlarni (biz erisha oladigan maqsadlarni) aniqlashda kontseptual asosni (tamoyillar, yetakchi g'oyalar) belgilashdan iborat. Yangi texnologiya mazmunida jarayonni bosqichma-bosqich tashkil etish va diagnostika algoritmining protsessual tavsifi eng muhim hisoblanadi. Diagnostika vositalari har qanday innovatsion mahsulotning eng zaif nuqtalaridan biridir.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tasniflashning yangi asoslarini taklif qilish muhimdir. Shunday qilib, bugungi kunda talab qilinadigan, o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning ma'lum qobiliyatlariga yo'naltirilgan mustaqil faoliyatini taklif qilish mumkin. Sivilizatsiya va madaniyat tarixining o'zi jarayonning to'rtta asosiy shaklini ilgari suradi. Ular inson tarbiyasi: o'qitish, mehnat, muloqot va o'yin. Bu jarayonlar ta'limimiz uchun yangilik emas. Mehnatga odatlangan o'quvchini tarbiyalash kerak, lekin maktabni o'zgartirish nuqtai nazaridan hozir hech qanday ish talab qilinmaydi.

Demak, gap shundan iboratki, o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, tushunchalarning muallifi, ishlab chiquvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi bo'lishi mumkin. Bu jarayonni boshqarish hamkasblar tajribasi yoki fan tomonidan taklif etilgan yangi g'oyalar va usullarni maqsadli tanlash, baholash va o'z faoliyatida qo'llashni ta'minlaydi. Jamiyat, madaniyat va ta'lim rivojlanishining zamonaviy sharoitida pedagogik faoliyatning innovatsion yo'nalishi zarurati bir qator holatlar bilan belgilanadi.

Birinchiidan, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar ta'lim tizimini, turli tipdagi ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish metodikasi va texnologiyasini tubdan yangilash zaruratini tug'dirdi. Pedagogik innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish va ulardan foydalanishni o'z ichiga olgan o'qituvchi va pedagoglar faoliyatining innovatsion yo'nalishi ta'lim siyosatini yangilash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchiidan, ta'lim mazmunini insonparvarlashtirishni kuchaytirish, o'quv fanlari hajmi va tarkibini doimiy ravishda o'zgartirish, yangi o'quv fanlarini joriy etish yangi tashkiliy shakllar va o'qitish texnologiyalarini doimiy ravishda izlashni talab qiladi. Bunday vaziyatda pedagogik bilimlarning o'quv muhitidagi roli va nufuzi sezilarli darajada oshadi.



Uchinchidan, o'qituvchilarning pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va qo'llash haqiqatiga munosabati tabiatining o'zgarishi. Ta'lim jarayonining mazmunini qat'iy tartibga solish sharoitida o'qituvchi nafaqat yangi dasturlar, darsliklarni mustaqil tanlashda, balki pedagogik faoliyatning yangi texnika va usullaridan foydalanishda ham cheklangan edi. Agar ilgari innovatsion faoliyat asosan yuqoridan tavsiya etilgan innovatsiyalardan foydalanishga qisqartirilgan bo'lsa, endi u tobora ko'proq tanlangan, izlanish xarakteriga ega bo'lmoqda. Shuning uchun ham maktab rahbarlari va ta'lim organlari faoliyatidagi muhim yo'nalish o'qituvchilar tomonidan joriy etilgan pedagogik yangiliklarni tahlil qilish va baholash, ularni muvaffaqiyatli ishlab chiqish va qo'llash uchun sharoit yaratish hisoblanadi.

To'rtinchidan, umumta'lim muassasalarining bozor munosabatlariga kirishi, yangi turdagi, jumladan, davlat ta'lim muassasalarining tashkil etilishi ularning raqobatbardoshligining real holatini yaratadi. Innovatsion o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda o'qituvchi jarayonni yanada to'liq, qiziqarli, boy qiladi. Ta'lim chorrahasida yaxlit dunyoqarashni shakllantirish uchun bunday integratsiya shunchaki zarur bo'lib, innovatsiyalar o'quv jarayoniga AKTni joriy etish, dasturiy ta'minot, ta'lim muassasalariga yetkazib beriladigan interaktiv elektron doskalar, modernizatsiya loyihalarini o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, innovatsion pedagogik faoliyat tajribasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim tizimi o'z taqdirini o'zi belgilashning keskin inqirozini boshdan kechirmoqda. Bu ta'limning ustuvorliklari, qadriyatlari va ma'nosi muammosi inson subyektivligini shakllantirish muammosi va ta'lim jarayonlarini ularning haqiqiy, rivojlanayotgan ma'nosida tashkil etish uzoq vaqt davomida juda dolzarb va munozarali bo'lib qoladi [6;277].

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Donald J. Peurach. Educational innovation and problems of improvement: ligning politics, policies, and practice. The national centr on Scaling up effecetive school. Conference Paper October 2015. P. 2, 7.

2. [https://akvobr.ru/problemy\\_pedagogicheskoi\\_innovatiki.html](https://akvobr.ru/problemy_pedagogicheskoi_innovatiki.html)

3. <https://uz.wikipedia.org>

4. <https://www.oecd.org/general/Key-information-about-the-OECD.pdf>

5. Innovation strategy for education and training. OECD.  
[www.oecd.org/edu/innovation](http://www.oecd.org/edu/innovation). Pp.1

6. Белобрыкина О.А. Итоги и проблемы инновационной деятельности дошкольных образовательных учреждений. <http://repo.nspu.ru/> - С. 273-277.

7. Джураев Р.Х., Турғунов С.Т., Таълим менежменти. – Тошкент: “VORIS-NASHRIYOT”, 2006. Б. 263.

8. Қурбонов Ш., Сейтхалилов Э. Таълим сифатини бошқариш. Тошкент: “ТУРОН-ИҚБОЛ”: 2006. Б. 590.

9. Пўлатов Ш. Талим менежменти ёхуд таълим муассасасини илмий-методик бошқариш стратегияси. “Yosh kuch”. Тошкент – 2019. – Б. 591.

10. Рапацевич Е.В. Развитие инноваций и современного образования. Проблемы. материалы конференции. успехи современного естествознания №10, 2013, 88-89 с.